




## 2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun qurilish ishlari

**3 824,2**  
mlrd. so'm


**100,4 %**

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **3 824,2 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,  
2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 155 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 329 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **111,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **10,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **109,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,6 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2826</b>	<b>3155</b>	<b>111,6</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>753</b>	<b>836</b>	<b>111,0</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>293</b>	<b>316</b>	<b>107,8</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>101</b>	<b>111</b>	<b>109,9</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>275</b>	<b>317</b>	<b>115,3</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>90</b>	<b>104</b>	<b>115,6</b>
	<b>Qo'shtepa</b>	<b>99</b>	<b>105</b>	<b>106,1</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>144</b>	<b>159</b>	<b>110,4</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>116</b>	<b>123</b>	<b>106,0</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>74</b>	<b>82</b>	<b>110,8</b>
	<b>Quva</b>	<b>136</b>	<b>137</b>	<b>100,7</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>155</b>	<b>171</b>	<b>110,3</b>

	Rishton	65	70	107,7
	So'x	32	41	128,1
	Toshloq	120	134	111,7
	O'zbekiston	69	81	117,4
	Farg'ona	68	96	141,2
	Dang'ara	117	124	106,0
	Furqat	60	70	116,7
	Yozyovon	59	78	132,2


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarini soni,  
01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona sh. (26,5 %), Qo'qon shaxri (10,0 %) va Marg'ilon (10,0 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **331,0** mld. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **64,4** % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,9** % punktga kamayib, **8,6** % ni tashkil etdi.

## 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **36,4** % i yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **56,3** %), Quvasoy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,4** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8** marta), va Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,8** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **49,5** % ) ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlaring umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlaringin bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,8 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **7,1 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **112,2 %** ni tashkil etgan holda **2 629,7 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,6 %** ni tashkil etdi yoki **863,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **90,7 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **131,1** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 693,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,4 %** va **96,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



### Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2020- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 58,1 % i yoki **2 223,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**58,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **196,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 8,8 % ni tashkil etdi

**8,8 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 265,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,9 % ni tashkil etdi.

**56,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **761,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,3 % ni tashkil etdi.

**34,3 %**




**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>3 824,2</b>	<b>100,4</b>	<b>2 223,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	1020,7	117,8	452,3
Qo'qon	269,2	78,1	153,2
Quvasoy	181,6	118,8	167,5
Marg'ilon	542,8	100,5	422,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	182,0	117,2	46,1
Qo'shtepa	166,5	100,2	82,1
Bag'dod	241,3	94,2	206,9
Buvayda	96,3	105,6	48,1
Beshariq	87,6	36,4	79,5
Quva	158,0	114,8	123,0
Uchko'prik	109,2	100,6	27,0
Rishton	51,7	100,5	30,0
So'x	84,7	112,7	7,2
Toshloq	92,2	102,4	49,5
O'zbekiston	83,1	106,5	56,0
Farg'ona	66,3	100,5	26,9
Dang'ara	174,1	100,6	143,6
Furqat	111,0	100,1	74,9
Yozyovon	106,0	100,2	27,4

\*shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmaydigan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari**



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,2 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,7 %** punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,9 %** punktga ko'payib, **66,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,1 %** punktga kamayib, **28,7 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



### Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **8,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,5 %** (**9,6 %** punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,5 %** (**0,8 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.







## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **14,6 %** punktga kamaydi va **13,8 %** ni tashkil etdi. Qolgan **86,2 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **14,6 %** punktga ko'paydi.

*ulushi, % da*



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





## FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Tel.: 73 249-87-26  
bajaruvchi: U. Umarov**